

**Z.Allaberganov, TMI katta o'qituvchisi
A.Davlatov, TMI magistranti**

YUQORI TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN ISHLAB CHIQARISHNI TASHKIL ETISHDA MAHALLIYLASHTIRISHNING O'RNI

Maqolada yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etishda mahalliylashtirishning o'rnini bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etilgan va ishlab chiqarishni mahalliylashtirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *mahalliylashtirish, iqtisodiy muvozanatlilik, mintaqalarning ixtisoslashuv, mahalliylashtirish zanjiri, ishlab chiqarish zanjiri, ishlab chiqarish salohiyati, ilg'or innovatsiya texnologiyalar.*

В статье рассматривается роль локализации в организации наукоемкого производства, а также разработаны рекомендации и рекомендации, направленные на улучшение локализации производства.

Ключевые слова: локализация, экономическое равновесие, специализация регионов, цепочка локализации, производственная цепочка, производственный потенциал, передовые инновационные технологии.

The article deals with the role of localization in the organization of high technology-based production, and developed recommendations and recommendations aimed at improving the localization of production.

Key words: *localization, economic equilibrium, specialization of regions, localization chain, production chain, production potential, advanced innovation technologies.*

Ma'lumki, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari bo'yicha O'zbekiston boy tajribaga ega davlat hisoblanadi. Xususan, mamlakatimizda 2000 yildan boshlab mahalliylashtirish jarayonlari keng qamrovda amalga oshirilib kelinayotgani va maqsadli dasturlar qabul qilinayotganligining o'zi ushbu sohaning milliy iqtisodiyotda naqadar muhim o'rinn tutishini anglatadi. Shu o'rinda ishlab chiqarishni mahalliylashtirish nima? U qanday jarayonlarni o'z ichiga oladi va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda uning roli qanday? degan savollarga javob topishga harakat qilamiz.

Mahalliylashtirish – biron mintaqqa yoki aholi yashash joyiga ma'lum bir tarmoqni aniq sohaga jalb etishni bildiradi. Mahalliylashtirish viloyat yoki mintaqalarning ixtisoslashuvi bo'yicha hududiy mehnat taqsimoti bilan uzzviy bog'liqdir. Ushbu jarayonda yangi turdag'i mahsulot yoki xizmatni yaratilishi bilan birga ishlab chiqarishga yangicha yondashuv usullari, yangi ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etilishi bevosita hudud infratuzilmasini yanada rivojlantirish, ish kuchini bandligini ta'minlash va mahalliy byudjetni barqaror rivojlantirishga

zamin yaratadi. Shu o‘rinda mahalliylashtirish tushunchasiga berilgan ta’riflarga nazar tashlash zarur.

Mahalliylashtirish tushunchasi turli manbalarda turlicha yoritilgan, xususan, bir manbada yashash joyiga ma’lum bir tarmoqni aniq sohaga jalb etishni bildiradi. Mahalliylashtirish viloyat yoki mintaqalarning ixtisoslashuvi bo‘yicha hududiy mehnat taqsimoti bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu jarayonda yangi turdag'i mahsulot yoki xizmatni yaratilishi bilan birga ishlab chiqarishga yangicha yondashuv usullari, yangi ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etilishi bevosita hudud infratuzilmasini yanada rivojlantirish, ish kuchini bandligini ta’minlash va mahalliy byudjetni barqaror rivojlantirishga zamin yaratadi.

Shu o‘rinda mahalliylashtirish tushunchasiga berilgan ta’riflarga nazar tashlash zarur. Mahalliylashtirish tushunchasi turli manbalarda turlicha yoritilgan, xususan, bir manbada «mahalliylashtirish – (lotincha “localis” so‘zidan olingan bo‘lib, mahalliy degan ma’noni anglatadi) u yoki bu narsani muayyan joyga yo‘naltirish: faoliyat doirasini cheklash, u yoki bu xodisani, jarayonni om-malashtirishdir»[2] deb ta’riflangan.

Mahalliylashtirishni iqtisodiyot nazariyasida bugungi kunga kelib L.Valras nazariyasi bo‘yicha o‘rganiladi va tadqiq etiladi. Valras nazariyasi borliqda iqtisodiy muvozanatlilik modelini o‘zida bayon etgan. Uning asosi sifatida esa eksport-import operatsiyalari olingan.

Mahalliylashtirishning zamonaviy kontseptsiyasi ishlab chiqarilgan mahsulotlarni nafaqat ichki, shuningdek tashqi bozorda raqobatdoshligini oshirishni ko‘zda tutadi. Chunki bu borada mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi xorijiy davlatlarga xomashyo emas, balki yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar eksport qilishni yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Zamonaviy mahalliylashtirishning asosiy yo‘nalishi – bu xomashyoga yo‘naltirilgan emas, balki xom ashyoni chuqur qayta ishlovchi, yuqori texnologik sanoat sektorlarini rivojlantirishdir.

Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari amalga oshirilayotgan hududda quyidagi ijobjiy ko‘rsatkichlar kuzatiladi:

A) Ishlab chiqarish mahalliylashtirilgan joy obro‘ e’tibor qozona boshlaydi. Xususan:

- ishchilar o‘zini yaxshiroq ko‘rsatishga harakat qiladi;
- ishlab chiqarishni yaxshi o‘zlashtiriganlar esa hukumatning imtiyozlaridan foydalanim o‘zining biznesini boshlash xarakatiga tushadilar.

B) Malakalilar mehnati. Ya’ni:
- mahalliylashtirish aniq kasblarni ixtisoslashishiga olib keladi;
- mutaxassislar mahalliylashtirilayotgan joyga jamlanib boradi
- mahalliy aholi ham asta-sekinlik bilan mutaxassislar tomonidan yangi kasblarga o‘qilib (tayyorlab) boriladi.

S) Son va sifatning o‘sishi:
- sanoat jalb etilgan hududda boshqa sanoat ishlab chiqarish ob’ektlarining ham jalb etilib borishini ko‘rish mumkin:

- bank va moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi muassalalar o‘z filiallarini sanoat jalb etilgan hududda ham ochadilar;

- temir yo‘l va yuk tashuvchi korxonalar o‘z xizmatlarini mazkur hudud uchun mahsus xizmatlarini taqdim etish uchun harakat qiladilar.

D) Mahalliylashtirish zanjiri:

- mahalliylashtirish joriy etilgan joylarda sanoatning qo‘srimcha tarmoqlari, mahsulot ishlab chiqarishdagi asbob-uskunalarni ishlab chiqarish ham kengayib boradi. Bu mahalliylashtirish zanjiri deb ataladi.

E) Muammolarni birgalikda hal etish:

- mahalliylashtirish jarayonida xamma ishtirokchilar bir maqsad uchun birlashadilar;

- ma’lum bir ijtimoiy-iqtisodiy muammo paydo bo‘ladigan bo‘lsa, mahalliylashtirishda uyushgan jamoa birgalikda harakat qiladi.

Aksariyat xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda esa mahalliylashtirishga davlat tomonidan ichki bozorni xorijiy ishlab chiqaruvchilardan himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish jarayoni sifatida qaralgan va qattiq tanqid ostiga olingan. Lekin, bugungi kunda deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotida ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlarini kuzatish mumkin. Bunga yalpi ichki mahsulotining hajmi bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda turuvchi Xitoy Xalq Respublikasi misol bo‘la oladi.

Shuningdek, mamlakatimizda ham mahalliylashtirish jarayonlarining izchil amalga oshirib kelinishi natijasida 19 mingdan ziyod ish o‘rni yaratilib, hududlarda aholining bandlik darajasini ortishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shti. Shu bilan birga O‘zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Har bir hududning tabiiy iqlim sharoiti, geografik joylashuvi, mavjud resurslaridan kelib chiqqan holda Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va respublikamizning barcha viloyatlarida mahalliylashtirish dasturiga kiritilgan bir qator loyihalar amalga oshirilib mahsulotlarning yangi turlari o‘zlashtirilmoqda.

Buning natijasida aholi talablarini qondirishda xorijiy mamlakatlardan import qilinayotgan mahsulotlarni o‘rnini bosuvchi sifatli va narx jihatdan bir necha marta arzon bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, pirovardida ushbu mahsulotlarni eksportga yo‘naltirish ko‘zda tutilgan.

Institutsional jihatdan mahalliylashtirish bo‘yicha ko‘pgina maqsadli dasturlar qabul qilinganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Xususan, shu kunga qadar bevosita mahalliylashtirish bilan bog‘liq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10 ta qarori, mutasaddi vazirlik va qo‘mitalarning 2 ta qo‘shma qarori va ushbu hujjatlari asosida 2 ta Nizom, jami 20 ga qonunosti hujjatlari qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 1 dekabrdagi “Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni chuqurlashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-1236 sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2010 yil 21 iyuldagи “Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturlari shakllantirish va amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №154 sonli qarori mahalliylashtirish jarayonlarini tashkil etish va tartibga solishda dasturi amal bo‘lib hizmat qilmoqda[3].

Ma’lumki, ishlab chiqarishni rivojlantirishda ikki xil omil: miqdor va sifat, ekstensiv va intensiv, ya’ni kengaytiruvchi (uzaytiruvchi) va zo‘r beruvchi, kuchaytiruvchi omillar harakatda bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, agar ishlab chiqarish sohasi kengaytirilsa, ekstensiv suratda kengaygan takror ishlab chiqarish bo‘ladi; agar yana ham ko‘proq samara beradigan ishlab chiqarish vositalari qo‘llaniladigan bo‘lsa, intensiv suratda kengaygan takror ishlab chiqarish yuzaga keladi.

O‘zbekiston sanoatida ana shu ikki yo‘ldan oqilona foydalanish natijasida ishlab chiqarishning samaradorligi bosqichma-bosqich o‘sib bormoqda.

Bizning fikrimizcha, ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlariga quyidagilar kiradi:

-ishlab chiqarish tarkibini yaxshilash;

-ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va hududiy joylashtirish darajasini oshirish;

-inson omilini kuchaytirish asosida ishchi kuchi ijodiy faolligini va tashabbusini oshirishni yo‘lga qo‘yish.

Sanoat ishlab chiqarishini erkinlashtirish tarmoqda islohotlarni chuqurlashtirish samaradorlikni oshirishning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi.

Ma’lumki, iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida texnika taraqqiyotining xarakteri va mazmuni o‘z xususiyatlarga ega bo‘ladi. Masalan, bozor iqtisodiyotiga o‘tish natijasida fan-texnika taraqqiyoti undagi mikdoriy o‘zgarishlargagina emas, balki ko‘proq sifat o‘zgarishlariga qaratiladi. Umuman, samaradorlik iqtisodiyotdagi sifat o‘zgarishlari bilan bog‘liqdir, bu talab fan-texnika taraqqiyotiga ham to‘liq joriy etiladi.

So‘nggi uch yilda ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hisobiga shaxta vagonetkalari, vakuum nasoslar, ko‘tarma kranlar, har xil turdagи o‘tga va kislotalarga chidamli materiallar, qurilish jihozlari sendvich panellari, sun’iy sintetik gazonlar, shisha bankalar, butilkalar, kraxmal, non mahsulotlari uchun achitqilar singari yuz turdan ortiq tovarlarning mamlakatinimizga olib kirilishi butunlay to‘xtatilgan.

Bizning fikrimizcha esa, mahalliylashtirish – ichki talabni qondirish maqsadida import qilinadigan tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallarni mamlakatda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish hisoblanib, sanoatda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllaridan biridir.

Biz mahalliylashtirish bosqichlarini o‘rganishimizda I.D.Kotlyarov tomonidan ilgari surilgan shakllar mahalliylashtirish natijalarini to‘liq yoritib beradi deb hisoblaymiz. Quyidagi jadvalda mahalliylashtirish bosqichlari va uning mazmunin ko‘rib chiqamiz.

Mahalliylashtirish bosqichlari va uning mazmuni[4]

Mahalliylashtirish bosqichlari	Bosqichning mazmuni	Mahalliylashtirish natijasi
Birlamchi mahalliylashtirish	Ishlab chiqarish siklini yakunlovchi bosqichini mamlakat hududiga joylashtirish	Yangi ish joylarini yaratish, soliq tushumlarining oshishi, yakuniy mahsulotlarni yig‘ish jarayonida mahalliylashtirish tushuniladi
Ikkilamchi mahalliylashtirish	Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarishni ma’lum siklini mahalliy ishlab chiqarish tomonidan etkazib berishni shakllantirish	Yakuniy tovar alohida komponentlarini ishlab chiqarish uchun horijiy ishlab chiqaruvchilarini to‘g’ridan to‘g’ri va bilvosita rag‘batlantirish va salohiyatlari mahalliy ishlab chiqarishni tashkil etish
Uchlamchi mahalliylashtirish	Mamlakatda eksportga yo‘naltirilgan yakuniy mahsulotni ishlab chiqarishga yo‘naltirish, milliy ishlab chiqaruvchilarning yakuniy mahsulot ishlab chiqarish zanjirida qiymatni yaratish	Yakuniy mahsulotni ishlab chiqarishga yo‘naltirishda o‘zining zanjirini shakllantirish

Bizning fikrimizcha, milliy iqtisodiyot uchlamchi mahalliylashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir, chunki aynan mana shu bosqich jahon bozoriga chiqishga imkon beradi. Mahalliylashtirishda boshlang‘ich shart kapitalga ega bo‘lish imkoniyati, texnologiyalar va ishlab chiqarishni salohiyati va sotish bozorini mavjudligi hisoblanadi.

Mahalliyshaltirish asosida investitsiya va texnologiyalar rivojlantirish shakllarini bir-biridan farqlash mumkin. Buni quyidagi keltirilgan jadval orqali tahlil qilish mumkin.

Ishlab chiqarishni mahalliylashtirishning tashkil etishning asosiy shakllari[5]

Mahalliylashtirish shakli	Investitsiyalar	Texnologiyalar
Mahalliy bozorda xorijiy korxonalar	xorijiy	xorijiy
Qo‘shma korxonalar	xorijiy / mahalliy	xorijiy / mahalliy
Mahalliy korxonalar tomonidan litsenziya sotib olish	mahalliy	xorijiy
Xorijiy kompaniyalar buyurtmasini mahalliy korxonalarga ko‘chirish	mahalliy	mahalliy

Yuqorida jadvalni tahlil qilar ekanmiz, mahalliylashtirish dasturi shaklini tanlashda investitsiyalar va texnologiyalarning o‘zaro muvofiqligiga bog‘liq bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasida jumladan, investitsiyalarga oid quyidagilarni ta’kidlab o‘tdi: “Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya slohiyatini to‘la namoyon etish choralarini ko‘rishimiz kerak. Biz mamlakatimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo‘yicha investitsiya loyihibalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobjiy natijaga erishish mumkin. Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida biznes sub’ektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferentsiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim. Birinchi navbatda, eksportga

mahsulot chiqarayotgan, innovatsion va yuqori texnologik ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yan tadbirdorlarga va chet ellik investorlarga shunday imkoniyat yaratish kerak”[1]. Bu esa o‘z navbatida investitsiyalarni kiritish hisobiga mahalliy ishlab chiqarishni yangi va yangi tarmoqlarini shakllantirishga asos bo‘ladi.

Mamlakatimizda mavjud imkoniyat va shart-sharoitlarni hisobga olganda eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishda bozor mexanizmining o‘rni alohida ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Chunki, so‘ngi yillarda mamlakatimizda ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlar tizimini samarali amalga oshirishda bozor mexanizmining o‘rni beqiyos darajada ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa ushbu jarayon import qilinayotgan mahsulotlarni mahalliylashtirish doirasida erishilgan yutuqlarda o‘zining yorqin ifodasini topadi.

Real sektorda yuqori darajadagi qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarilishi, raqobatbardosh tarmoqlarni rivojlantirish maqsadida xom ashyni chuqur qayta ishlaydigan tarmoqlar ulushini oshirishga qaratilgan iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarning amalga oshirilishi O‘zbekiston korxonalarining tashqi bozordagi raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Fikrimizcha, yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etishda mahalliylashtirishning rolini oshirishga qaratulgan qyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- tarkibiy tuzilma hosil qiladigan tarmoqlar va umuman, sanoatni rivojlantirishda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini diversifikasiya qilishga yo‘naltirilgan tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish;

- mamlakatimiz sanoat mahsulotining raqobatbardoshligini oshirish, sanoat va butun iqtisodiyotni rivojlantirishning jahon kon'yunkturasidagi o‘zgarishlarga bog‘liqligi kamaytirish maqsadida normativ ko‘rsatkich va tariflarning barqarorligini ta’minlash;

- sanoat korxonalarini keng miqyosida modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, ularni eng zamonaviy yuksak texnologiyalar bilan jihozlash, sanoat tarmoqlarida zamonaviy ilm-fan yutuqlari va ilg‘or innovatsiya texnologiyalarni jadal tadbiq etish, sanoat uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashni kengaytirish;

- ishlab chiqarishni diversifikasiya qilish, mahalliy xom ashyni chuqur va sifatli qayta ishlash negizida eksport salohiyatining barqaror o‘sib borishini, eksportga mo‘ljallangan raqobatbardosh sanoat mahsuloti ishlab chiqarishni ko‘paytirishni, ularni sotish bozorlari kengaytirilishini ta’minlash;

- ichki sanoat kooperatsiyasi va ishlab chiqarish mahalliylashtirili-shini yanada rivojlantirish, sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, sanoat korxonalarini mamlakatimizning barcha mintaqalarida joylashtirish va shu asosida import o‘rnini bosadigan mahsulot ishlab chiqarilishini, yangi ish joylari yaratilishi hamda aholining ish bilan bandligi o‘sishini, odamlarning daromadlari va turmush darajasi yanada ortib borishini ta’minlash;

- jahon bozori talablariga mos taklif hajmini yaratishda korxona-larning marketing faoliyatini takomillashtirgan holda innovatsion texnika va texnologiyadan foydalanib ishlab chiqarish tizimini yangilash;

- transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirish-ga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisiga murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.
2. Большой энциклопедический словарь. Москва, 1997 г.
3. Egamberdiyev Sh.S.O'zbekiston sanoatida mahalliylashtirish dasturlarining tashkiliy-huquqiy asoslari // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 2, aprel, 2018 yil.
4. Котляров И.Д. Локализация производства как инструмент импортозамещения // ЭКО.– 2016.– №8.– С.128–150.
5. Макаров А.Н. Локализация производства продукции производственно– технического назначения на территории региона как тенденция импортозамещения // Гуманитарные и социальные науки.2011–№3– С.34–41.